Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

sug‘urta bozorining rivojlanishining dastlabki bosqichida raqobat ancha past. Buning natijasida sug‘urta kompaniyalari ko‘pincha unchalik raqobatbardosh narxlar va xizmatlarni taklif qilishmaydi.Xizmatlar va to‘lovlar bo‘yicha aniq ma’lumotlarning yo‘qligi: Aholi uchun tibbiy sug‘urta xizmatlarining shaffofligi va to‘lovlarning aniq ko‘rsatmalari yo‘q. Bunday holatlar ba’zi fuqarolarni xizmatlardan foydalanishdan to‘xtatishi yoki noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Ushbu maqoladan xulosa shuki, O‘zbekistonda tibbiy sug‘urta tizimi hali ham rivojlanayotgan sohaga kiradi, lekin bu tizim O‘zbekiston fuqarolari uchun sezilarni afzalliklar bermoqda. Tibbiy sug‘urtani aholi o‘rtasida keng tadbiq etish avvalo, aholini ishonchini oqlash va u tizimga ularni o‘rgatish lozim. Aynan, bu tizimni rivojlantirish bizning respublikada sekin natijalarga aylanib bormoqda, bunga, asosiy sabab urbanizatsiya jarayoni ham deb, o‘ylayman. Sababi, shaharlashish jarayoni tezlashishi va aholining unga moslashish qanchalik yuqori bo‘lsa, tibbiy sug‘urtaga ham ishonch va uni amal qilishi ham tezlashadi va yaxshilanadi. Bu tizimda insonlarning ishonchini sezilarli darajada bo‘lishi uchun bir necha takliflar berib o‘tamiz.

Takliflar

1. Aholida tibbiy sug‘urta emas, balki, sug‘urtaning barcha turlarini rivojlantirish uchun qonun-qoidalarning ishlashni tezlashtirish. Ko‘p hollarda sug‘urtani amalga oshirishda qonun-qoidalar va tekshiruvlarning ko‘pligi aholi uchun noqulayliklar keltirib chiqaradi va aholi bunday noqulayliklarni jabrlanuvchi bo‘lgan holida qabul qilolmaydi va sug‘urtadan voz kechadi.
2. Sug‘urta kompaniyalarining e’tiborsizligi. Bu risk paydo bo‘lgan holatda sug‘urtalangan fuqaroga birinchi bo‘lib sug‘urta kompaniyalarining murojaat qilmasligi hisoblanadi. Agar sug‘urta kompaniyasi sug‘urtalangan fuqaroga birinchi yordamni qisqa muddat ichida ko‘rsatsa, unda mijozlar sonining ko‘payishiga ham erishish mumkin.
3. Sug‘urta polisa va sug‘urta shartnomasiga ega bo‘lish uchun qisqa muddat va masofaviy murojaatni tashkil etish va uni takomillashtirish.

O‘zbekistonda tibbiy sug‘urtaning rivojlanishiga qaramay, bir qator muammolar mavjud. Bu muammolarni hal qilish uchun sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, tizimni shaffofroq qilish, xizmatlarning sifatini oshirish va tibbiy sug‘urta bozoridagi raqobatni kuchaytirish zarur. Davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish, aholiga aniq va tushunarli ma’lumotlar taqdim etish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash tibbiy sug‘urta tizimini samarali qilishda muhim omillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Sug‘urta ishi” X.M. Shennayev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, I.G‘.Kenjayev o‘quv qo‘llanma
2. https://lex.uz/docs/-5739117
3. https://lex.uz/acts/-106047
4. https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/26/agricultural-risk-insurance/
5. https://imda.uz/oz/sugurta-qonuni-anjuman/

TADBIRKORLIK RIVOJI VA BANDLIK: AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH YO‘LI

Shavkatov Abdusalim Shavkat o‘g‘li
Toshkent Kimyo-Texnologiya Instituti Yangiyer filiali stajyor-o‘qituvchisi
abdusalimshavkatov9@gmail.com

Annotatsiya

Published: 23.12.2024
Cite this article: Shavkatov Abdusalim Shavkat o‘g‘li (2024). Tadbirkorlik rivoji va bandlik: aholi farovonligini oshirish yo‘li. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/1089
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Mazkur maqolada kichik tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishi va rivojlanishi aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikka erishishdagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida aholi real umumiy daromadlari o‘sish sur’ati, ishsizlar soni va yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni o‘rtasidagi bog‘liqlik MANOVA (ko‘p o‘zgaruvchili dispersiya tahlili) yordamida tahlil qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari ishsizlikni kamaytirishda sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va iqtisodiyotda bandlikni oshirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Biroq, tadbirkorlikning aholi daromadlari o‘sish sur’atiga ta’siri nisbatan past bo‘lib, daromadlarni oshirish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar zarurligi qayd etilgan. Maqolada tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan. Ushbu ish kichik biznesning rivojlanishi va davlat siyosatining ahamiyatini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar

Kichik tadbirkorlik subyektlari, Iqtisodiy barqarorlik, Real daromadlar o‘sish sur’ati, MANOVA tahlili, Ishsizlik darajasi.

Kirish

Aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda tadbirkorlikni rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. Tadbirkorlik nafaqat yangi ish o‘rinlari yaratadi, balki aholi daromadlarini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish uchun ham zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. O‘zbekiston so‘nggi yillarda bu yo‘nalishda sezilarli yutuqlarga erishdi, yangi kichik tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishi va ish o‘rinlarining ko‘payishi mamlakat iqtisodiyotini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

2023-yilda O‘zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus dasturlar joriy etildi. Ushbu dasturlar aholini doimiy daromad manbai bilan ta'minlash va bandlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, yangi kichik biznes subyektlarining ko‘payishi real daromadlar o‘sishi bilan uyg‘unlashib, aholi turmush darajasini sezilarli darajada yaxshilashga imkon bermoqda.

Mamlakatda yangi tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va ularga qulay sharoit yaratish orqali iqtisodiyotda barqaror o‘sish sur’atlariga erishilmoqda. Bu, o‘z navbatida, aholini kambag‘allikdan chiqarish va ular uchun iqtisodiy imkoniyatlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada tadbirkorlik rivoji, bandlikni oshirish va aholi daromadlarini ko‘paytirish bo‘yicha O‘zbekiston tajribasi va imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi

Ushbu tadqiqot iqtisodiy o‘sishning asosiy omillarini, jumladan, kapital, mehnat va texnologiyaning ta'sirini tahlil qiladi. Solow modeliga ko‘ra, kapital sarmoyalari va texnologik innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik subyektlarining ko‘payishi va yangi texnologiyalarni joriy qilish aynan shu nazariyaga mos keladi[1]. Schumpeter tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanishning asosiy dvigateli sifatida ko‘rib chiqadi. Uning fikriga ko‘ra, innovatsiyalar va tadbirkorlik tashabbuslari yangi ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning poydevoridir[2]. World Bank Group "Doing Business Report" hisoboti dunyo mamlakatlarida tadbirkorlik muhiti va uning rivojlanish imkoniyatlari haqida ma'lumot beradi. O‘zbekiston ushbu indeksda yuqori natijaga erishish uchun qonunchilikni soddalashtirish va biznes muhitini yaxshilash bo‘yicha qator islohotlar olib bordi[3]. Kichik va o‘rta korxonalar (SME) kambag‘allikni qisqartirishda muhim rol o‘ynashi mumkinligi qayd etiladi[4]. Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida iqtisodiy o‘sish, bandlik va farovonlikni oshirish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida

belgilangan. O‘zbekiston SDG‘ga mos ravishda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va aholi turmush darajasini oshirish bo‘yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda[5].

Tadqiqotning nazariy asoslari

Aholi farovonligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash zamonaviy iqtisodiyotning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish iqtisodiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari sifatida tan olinadi. Ushbu yo‘nalishlarni tahlil qilish uchun ko‘p o‘zgaruvchili dispersiya tahlili (MANOVA) kabi statistik usullardan foydalanish katta ahamiyatga ega. MANOVA (Multivariate Analysis of Variance) bir nechta bog‘liq bo‘lgan bog‘liq o‘zgaruvchilar (dependent variables) uchun bir yoki bir nechta mustaqil o‘zgaruvchilar (independent variables) ta'sirini birgalikda o‘rganish imkonini beradi. Bu usul ayniqsa, iqtisodiy tadqiqotlarda bir necha omilning bir vaqtda ta'sirini baholashda foydalidir.

Ushbu tadqiqotda quyidagi o‘zgaruvchilar nazarda tutiladi:

Bog‘liq o‘zgaruvchilar (dependent variables):

- Aholi real umumiy daromadlari o‘sish sur’ati.
- Ishsizlar soni.

Mustaqil o‘zgaruvchilar (independent variables):

- Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni.
- Davr (2010-2023).

Natija va muhokama

Korrelyatsiya natijalari tahlili: X va Y1 o‘rtasidagi bog‘liqlik (0.893): Korrelyatsiya koeffitsienti juda yuqori 89%, bu yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (X) va aholi real umumiy daromadlari o‘sish sur’ati (Y1) o‘rtasida kuchli musbat bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Bu kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘payishi daromadlar o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.

1-jadval

Pairwise correlations

Variables	(1)	(2)	(3)
(1) X	1.000		
(2) Y1	0.893	1.000	
(3) Y2	-0.495	-0.581	1.000

Bu yerda:

X - Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni

Y1 - Aholi real umumiy daromadlari o‘sish sur’ati

Y2 - Ishsizlar soni

X va Y2 o‘rtasidagi bog‘liqlik (-0.495): Bu koeffitsient salbiy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (X) ishsizlar soniga (Y2) salbiy ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni tadbirkorlikning rivojlanishi ishsizlik darajasini kamaytirishda yordam beradi. Ammo bog‘liqlik darajasi o‘rtacha ekanligini hisobga olish kerak.

Y1 va Y2 o‘rtasidagi bog‘liqlik (-0.581): Aholi real umumiy daromadlari o‘sish sur’ati (Y1) va ishsizlar soni (Y2) o‘rtasida salbiy bog‘liqlik mavjud. Bu daromadlarning o‘sishi ishsizlik darajasini kamaytirishi mumkinligini anglatadi. Salbiy korrelyatsiya darajasi o‘rtacha kuchli.

2-jadval

mvreg

Equation	Obs	Parms	RMSE	"R-sq"	F	P
Y2	14	2	168.0684	0.7970	47.12661	0.0000
Y1	14	2	6.40153	0.2450	3.893504	0.0720
	Coef.	Std.Err.	t	P>t	[95%Conf.	Interval]
Y2						
X	-0.010	0.002	6.860	0.000	0.007	0.014
_cons	421.839	91.504	4.610	0.001	222.470	621.208
Y1						
X	0.001	0.000	-1.970	0.072	-0.000	0.000
_cons	117.284	3.485	33.650	0.000	109.691	124.878

1. Modelning umumiy ko‘rsatkichlari

Y2 (Ishsizlar soni) bo‘yicha: R-squared (R^2): 0.7970 — Model ishsizlar sonidagi o‘zgarishlarning 79.7% qismini izohlash imkoniyatiga ega ekanligini bildiradi. Bu yuqori darajada izohlay oluvchi modelni ko‘rsatadi.

F-statistika: 47.12851, p-value = 0.0000 — Ushbu ko‘rsatkich modelning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini bildiradi ($p < 0.05$).

Y1 (Aholi real umumiy daromadlari o‘sish sur’ati) bo‘yicha: R-squared (R^2): 0.2440 — Model daromadlar o‘sish sur’atlaridagi o‘zgarishlarning faqat 24.4% qismini izohlash imkoniyatiga ega. Bu o‘rtacha darajadagi izohlay oluvchi modeldir.

F-statistika: 3.193004, p-value = 0.0720 — Modelning statistik ahamiyati past, chunki $p > 0.05$.

2. X o‘zgaruvchining ta'siri

Y2 (Ishsizlar soni) uchun: Koefitsient: -0.010 — X (kichik tadbirkorlik subyektlari soni) o‘sishi ishsizlar sonini kamaytiradi. Bu salbiy ta’sirni anglatadi.

p-value: 0.0000 — Ushbu ko‘rsatkich statistik jihatdan juda ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi.

Y1 (Daromadlar o‘sish sur’ati) uchun: Koefitsient: 0.001 — X (kichik tadbirkorlik subyektlari soni) o‘sishi daromadlar o‘sish sur’atini ijobiy ta’sir qiladi. Ta’sir juda kichik bo‘lsa-da, musbat yo‘nalishda.

p-value: 0.072 — Ushbu ta’sir statistik jihatdan ahamiyatli emas ($p > 0.05$).

Xulosa va takliflar

Ishsizlikka ta'sir (Y2): Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining ko‘payishi ishsizlar sonini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu tadbirkorlikning bandlikni oshirishdagi ijobiy rolini tasdiqlaydi.

Daromadlar o‘sishiga ta'sir (Y1): Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining daromadlar o‘sishiga ta’siri musbat bo‘lsa-da, statistik jihatdan ahamiyatli emas. Bu daromadlar o‘sishi uchun boshqa omillarning (masalan, makroiqtisodiy siyosat, ta'lim, texnologiyalar) ham ta'sir ko‘rsatayotganini anglatadi.

Modelning ishonchliligi: Ishsizlik modeli (Y2) yuqori darajada tushuntirish qobiliyatiga ega ($R^2 = 79.7\%$) va ahamiyatli ($p = 0.0000$).

Daromadlar modeli (Y1) nisbatan past tushuntirish qobiliyatiga ega ($R^2 = 24.4\%$) va statistik ahamiyatga ega emas.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kichik tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishi aholi farovonligini oshirishda va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim

o‘rin tutadi. Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining oshishi, ishsizlik darajasini sezilarli darajada kamaytirib, bandlikni oshirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu natijalar kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatini kuchaytirishning iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlarining aholi daromadlari o‘sish sur’atlariga ta’siri ancha past bo‘lib, daromadlarning o‘sishini ta’minlash uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar zarurligini ko‘rsatadi. Bu ta’sirni oshirish uchun iqtisodiyotda texnologik modernizatsiya, ta’lim tizimini rivojlantirish va tadbirkorlik muhitini yanada qulaylashtirish muhim omil bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Solow, R. M. (1956). "A Contribution to the Theory of Economic Growth"

[2] Schumpeter, J. A. (1934). "The Theory of Economic Development"

[3] World Bank Group (2020). "Doing Business Report"

[4] Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Levine, R. (2005). "SMEs, Growth, and Poverty"

[5] United Nations Development Programme (UNDP) (2021). "Sustainable Development Goals (SDGs)"

[6] Abdusalim Shavkatov, Khalilov.A. Forecasting GDP Per Capita (Current Prices) As A Result Of Inflationary Effects In Case Of Uzbekistan.

[7] A Dilafruz, A Shavkatov. Davlat korxonalarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish strategiyalari.

O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA ISTE’MOL SAVATCHASINING AHAMIYATI

Allayarova Mastura Kudratullayevna
Guliston davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi
Ergashev Javohir Jahongir o‘g‘li
Gulistn davlat universiteti, Iqtisodiyot yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi aholisining turmush darajasini baholash, turmush farovonligini oshirish, aholi daromadlari va iste'mol harajatlari orasidagi bog‘liqliklarni o‘rganish va mavjud holatni tahlil qilish masalalariga bag‘ishlangan. Iste’mol savatchasining bugungi kundagi holati va davlat budjetining bunga tayyorligi statistik ma’lumotlar asosida ko‘rib chiqilgan. Iste’mol savatchasi, yashash minimumi va kambag‘allik darajasini aniqlash bo‘yicha taklif va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Iste’mol savatchasi, MHTEKM (mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori), pensiya va nafaqalar, yashash minimum, ishsizlik va integratsiyalashuv, ehtiyoj va daromad.

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning tub zamirida eng avvalo inson qadri va farovonligi turibdi. Jahon hamjamiyati bilan munosib integratsiyalashuv jarayonida aholining kundalik turmush tarzini yaxshilash asosiy maqsad hisoblanadi. Mustaqillikka erishganimizga 33 yil bo‘lgan bo‘lsada hamon iste’mol savatchasi tizimi joriy etilmagan. Prezidentimizning Oliy Majlisga yuborgan murojaatnomalarining barchasida aholining munosib hayot kechirishi masalasi alohida e’tiborga olinadi.

Tadqiqot metadologiyasi

Ushbu tadqiqot ishida alohida kuzatish orqali aholini iste’molga bo‘lgan